

Ona va bola-gul bilan lola
Опубликовано samar5555
Salomatlik
August 4, 2008

Millatimiz – bolajon xalq. Shu bois, mamlakatimizda onalar va bolalar salomatligini har tomonlama muhofaza qilish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada, ayniqsa, ona sog'ligini mustahkamlashga, sog'lom bola tug'ilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga, bola tug'ilganidan boshlab zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar yordamida salomatligini kuzatib borishga katta e'tibor qaratilayotir. Dispanser nazoratida turgan bemor va nogiron bolalarni ambulatoriya, shifoxona va sanatoriy sharoitlarida o'z vaqtida sog'lomlashtirish ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish, tibbiyot mutaxassislarining kasbiy bilim va malakasini oshirish masalasi ham e'tibordan chetda qolayotgani yo'q.

O'zbekiston hukumati Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JST), YUNISEF, BMTning Aholishunoslik jamg'armasi (YUNFPA), JICA, Osiyo taraqqiyot banki kabi va boshqa xalqaro muassasalar bilan onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish dasturi doirasida yaqin hamkorlik qilib kelayotir. «Bexatar onalik», «Perenatal xizmat samaradorligini oshirish», «Immunizatsiya dasturini kengaytirish», «Sog'lom oila», «Chaqaloqlarni ko'krak suti bilan boqishni rag'batlantirish», «Reproduktiv salomatlikni yaxshilash», «Yod va temir moddasi yetishmasligi profilaktikasi» kabi dasturlar ana shunday hamkorlik samaralaridandir.

Mamlakatimizda onalar va bolalar o'limini kamaytirishga ko'maklashuvchi xavfsiz onalik bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni tug'ruqqa yordam ko'rsatish amaliyotiga keng joriy etish borasidagi chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligidan ma'lum qilishlaricha, mazkur tadbirlar doirasida shu yilning birinchi choragida «Salomatlik – 2» hamda «Ayollar va bolalar sog'ligini mustahkamlash» loyihalari amalga oshirilayotgan olti viloyatning markaziy tibbiy shifoxonalari laboratoriyalari 60,8 ming AQSh dollari miqdorida asbob-uskuna va mebellar bilan jihozlangan. Viloyat va tumanlar tug'ruq muassasalarini jihozlash maqsadida 7 million 230 ming AQSh dollari miqdorida tibbiy asbob-uskunalar xarid qilish uchun shartnomalar imzolangan.

Tug'ilgan bolalarning sog'lom o'sishi ko'p jihatdan ular organizmida vitaminlarning yetarlilik darajasiga bog'liq. Shu jihatdan, yangi organizm uchun nihoyatda muhim bo'lgan A vitamini bilan ta'minlashga oid milliy kompaniya 5 yoshgacha bo'lgan 2,2 million bolani qamrab oldi. 2003 yildan e'tiboran bolalar yiliga ikki martadan A vitamini kapsulalarini olmoqda. Xuddi shu yildan boshlab O'zbekistonda YUNISEF va JICAning xotin-qizlar o'rtasida anemiya profilaktikasi bo'yicha qo'shma dasturi amalga oshirilib kelmoqda.

Aytish joizki, yurtimizda 1999 yildan buyon 4 milliondan ortiq fertil yoshidagi ayollar va ikki yoshgacha bo'lgan bolalar to'qqiz viloyatda temir va foliy kislotasi saplementatsiyasi bilan qamrab olingan. Bu ushbu guruhlar orasidagi anemiya kasalligining kamayishida ijobiy rol o'ynamoqda.

Natijada 2006 yilda fertil yoshidagi ayollar o'rtasidagi anemiya xastaligi 1996 yil ma'lumotlari bilan solishtirganda 37,7 foizga, 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasida 2002 yilgi ma'lumotlar bilan qiyoslaganda 33,1 foizga kamaygan.

Ma'lumki, xotin-qizlar va bolalar o'rtasida ko'p uchraydigan xastaliklardan biri bu kamqonlik hisoblanadi. O'zbekistonda ana shu muammoning oldini olish maqsadida bir necha yildan buyon unni foydali mikroelementlar bilan to'yintirishga qaratilgan «Unni to'yintirish bo'yicha milliy

dastur» amalga oshirib kelinmoqda. Ma'lumotlarga qaraganda, shu yilning birinchi choragida mazkur dastur doirasida 110 ming tonna minerallar va mikroelementlar bilan to'yintirilgan un ishlab chiqarilib, aholiga yetkazilgan.

Yurtimizda onalar va bolalar sog'ligini muhofaza qilish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli bunday chora-tadbirlar o'z natijasini berayotir. Buni so'nggi paytda onalar va bolalar o'limi ko'rsatkichlari sezilarli darajada kamayayotganidan ham bilsa bo'ladi.

Istiqlol yillari O'zbekistonda onalar va bolalar o'limi tegishli ravishda 2,1 va 2,4 marta kamaygan, aholi salomatligi va turmushi sifati indeksi ham yuqori ko'tarilib borayapti. Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlariga ko'ra esa, 2008 yilning uch oyi mobaynida onalar o'limi ko'rsatkichi tirik tug'ilgan har 100 ming nafar chaqaloqqa nisbatan 17,7 nafarga teng bo'lgan. Holbuki, ushbu ko'rsatkich 2007 yilning hisobot davrida 25,7 nafarni tashkil etgandi. Bir yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi ko'rsatkichi esa 1000 nafar bolaga nisbatan 13,7 promilldan 13,0 promillegacha kamaygan.

O'zbekistonning ushbu sohadagi yutuqlari ko'plab xalqaro tashkilotlar, jumladan BMTning xalqaro bolalar jamg'armasi – YUNISEF tomonidan ko'p marotaba e'tirof etilgan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Fikret Akchuraning ta'kidlashicha, «yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish darajasi O'zbekistonniki bilan teng bo'lgan mamlakatlardagiga qaraganda, O'zbekistondagi salomatlikka doir ko'rsatkichlar va sog'liqni saqlash sohasida erishilgan natijalar kishini lol qoldiradi».

Mamlakatimizda aholini, xususan, bola tarbiyasi bilan mashg'ul ayollarni ijtimoiy muhofaza qilish ko'lamini tobora kengaytmoqda. Ishlaydigan va ishlamaydigan ayollarga qonunchilik asosida bola ikki yoshga to'lgunga qadar parvarish qilish bo'yicha nafaqa to'lash bu yo'nalishdagi ishlarning amaliy ko'rinishidir.

O'tgan Ijtimoiy himoya yilida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. Farmonga ko'ra, davlat byudjetidan kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam to'lash uchun ajratiladigan byudjet mablag'larining hajmi 1,5 baravarga oshirilib, ayni vaqtda uni tayinlash va to'lash muddati 6 oygacha uzaytirildi. Bunday tartib 2007 yilning 1 sentyabridan amalga kiritildi va faqat o'tgan yilning oxirgi to'rt oyi davomidayoq, bu maqsadlar uchun davlat byudjetidan 3,1 milliard so'm qo'shimcha mablag' ajratildi.

Mazkur Farmon fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan bolali ehtiyojmand hamda kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash va to'lash tamoyillarining ijtimoiy adolat, xolislik va oshkoralik asosida aniq yo'naltirilishini ta'minlashga, undan haqiqiy ehtiyojmand oilalarga berishga, ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanishga ham zamin yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2008 yil asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi Qaroriga binoan, «Ishlayotgan onalarga bolani ikki yoshga to'lgunigacha parvarish qilish bo'yicha har oylik nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizomga o'zgartish kiritildi. Bunga ko'ra, byudjet tashkilotlarida ishlayotgan onalarga bolani parvarish qilish bo'yicha nafaqa fuqarolar yig'inining maxsus vakolatli komissiyasi tomonidan respublika va mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Boshqa mulkchilik shaklidagi

korxona-tashkilotlarda ishlovchi onalarga esa bunday nafaqa ularning o'z mablag'lari hisobidan, oilaning muhtojlik darajasidan qat'i nazar, to'lanadi. Ya'ni, Nizom hamma mulkchilik turlaridagi korxonalarga ikki yoshgacha nafaqani to'lash mas'uliyatini yuklaydi.

Shunday qilib, bu turdagi nafaqani oluvchi ayollar soni kamaymaydi, aksincha, ko'payadi. Misol uchun, quyidagi raqamlarni keltirish kifoya: 2007 yilda 450 ming nafar ayolga nafaqa to'langan bo'lsa, joriy yilning ikki oyidayoq 170 ming nafar ayolga 41 milliard so'm miqdorida nafaqa to'landi.

Ha, O'zbekistonda bolalarning tug'ilishi, unib-o'sishi, kamolga yetishigacha bo'lgan barcha davri davlatimizning doimiy nazoratida, diqqat-markazida. Davlat e'tiborida voyaga yetgan bola esa uning haqiqiy farzandi bo'lib ulg'ayadi.

Xolis MIRZO